

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbul va Rusiya dorilfunun va dorulsanoatlarig‘a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg‘a sa’y qilinsun. Bizni Turkistonda muallim ozdurki, to’y-u ma’rakag‘a sarf qilinaturg‘on oqcha ila Kafkaz, Qirim, O‘runburg va Qozong‘a usuli ta’lim o‘rganmoq uchun bola yubormoq kerakdur. Hukumat maktablarig‘a kirmoq uchun ruscha bilmoq va imtihon bermoq lozim. Va bu imtihonni bermoq uchun har bolani ikki sana ruscha o‘qutub, tarbiyat etmoq kerak”.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa jadid ajdodlarimizning boy va ma’naviy merosini o‘rganishimiz, ularning purma’no va ezgu g‘oyalarini jamiyatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlarga og‘ishmay tatbiq etishimiz, men va men singari tengqurlarimizning umr mazmuni, yorug‘ maslagi bo‘lib qolmog‘i zarurdur.

XIX–XX asrlarda Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqimizni uyg‘otishga, ilmga, ma’rifatga chorlashgan katta harakat bo‘lgan. Jadidlar eski usuldagi ta’limni isloh qilgan, yangi maktablar ochgan, gazeta-jurnallar chiqargan, xalqni ogohlikka chaqirgan. Ular millatning ko‘zini ochishga, erkin va obod kelajak qurishga harakat qilgan va yordam bergan. Jadidlarning o‘sha paytdagi fidokorligi, kurashi bugungi kunda ham qadrlanib kelinadi. Ularning orzulari – ozod, bilimli, taraqqiy etgan yurt – bizning bugungi hayotimizga zamin bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurashidjon Qori-Niyoziy. Jadidlar va ularning ma’rifiy faoliyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
2. G‘oyibnazarov B. Turkiston jadidchiligi: tarix va taraqqiyot yo‘li. – Samarqand: Zarafshon, 2010.
3. To‘raqo‘ziev Sh. Jadidchilik tarixidan saboqlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
4. Saidov A. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy harakatlar. – Toshkent: Sharq, 1999.
5. Rashidov F. Turkiston jadidlari va matbuot. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
6. Axmedova M. O‘zbek jadidlarining ma’rifatparvarlik faoliyati. – Toshkent: Fan, 2007.
7. Allamurodov O. Jadidchilik harakati va uning o‘zbek adabiyotidagi ifodasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: ЎзМЭ, 2000–2005.

ORFOGRAFIK MALAKALARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK ASOSLARI: YOZISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI, ORFOGRAFIK XATOLAR TAHLILI

Qosimova Sevara

*Alfraganus universiteti O‘zbek tili filologiyasi
fakulteti 2-kurs magistranti*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar orasida orfografik malakalarni shakllantirish berilgan bo'lib unda orfografiyaning barcha tamoyillari bo'yicha bilim, ko'nikma, malakani rivojlantirish yo'llari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: til, imlo, orfografiya, orfografik tamoyil, imlo, diktant, kitobxonlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования орфографических навыков у учащихся, анализируются пути развития знаний, умений и навыков по всем принципам орфографии.

Ключевые слова: язык, орфография, орфографический принцип, правописание, диктант, чтение.

Abstract: This article discusses the formation of spelling skills among students, analyzing ways to develop knowledge, skills, and competencies in all principles of spelling.

Keywords: language, spelling, spelling, spelling principles, spelling, dictation, reading.

Til – bu insoniyatning eng asosiy kommunikatsiya vositasidir. U nafaqat odamlar o'rtasida aloqa o'rnatishga yordam beradi, balki madaniyat, tarixni ham saqlaydi. Til orqali biz o'z fikrimizni, his-tuyg'ularimizni va bilimlarimizni boshqalarga yetkazamiz.¹ Shuning uchun ham og'zaki va yozma nutqdagi jumlarimiz bexato bo'lishligi tilning “uzoq umr ko'rishi”ga yordam beradi. Tilni yozma shaklda ifodalash jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Aynan shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini” qabul qilindi.

O'quvchi o'qish ko'nikmalarini egallash bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o'zining ona tilini o'rganishi zarur.² Bunda bizga orfografiya bo'limi yordam beradi. Ona tilida orfografiya va uning tamoyillari alohida bo'lim sifatida o'rgatiladi. Ular quyidagilardan iborat:

- Fonetik tamoyil
- Morfologik tamoyil
- Etimologik tamoyil
- Tarixiy-an'anaviy tamoyil
- Differensiatlash tamoyili

Har bir tamoyilni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi yozma nutqda xatolarga yo'l qo'ymaydi. Misol uchun, ocherk, tonna, mas'uliyat so'zlarini o'cherk, to'nna, ma'suliyat kabi xato tarzda yozmaslik uchun ham tamoyillarni o'rgatish zarurdir. Har bir tamoyil o'rgatilgach ularni muhtakamlashda turli metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, Venn diagrammasidan. Ko'plab o'quvchilarda etimologik tamoyil bilan tarixiy-an'anaviy tamoyilni adashtirish holatlari uchraydi. Aynan shunday holatlarda venn diagrammasining bir aylanasiga etimologik tamoyilni, ikkinchi aylanasiga esa tarixiy-an'anaviy tamoyilni, kesishgan qismiga morfologik tamoyilni yozib o'quvchilar bilan ishlansa ko'zlangan maqsadni albatta beradi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Bundan tashqari bo'g'iz undoshi (h) va chuqur til orqa undoshini (x) ham ko'plab o'quvchilarda uchraydigan orfografik xatolar misoliga kiritishimiz mumkin. Xo'sh bu xatolarni bartaraf etish uchun qanday yechimlar bor? Keling, bir nechta yechimlarni ko'rib chiqaylik.

Barchamizga ma'lumki, har bir inson uchun og'zaki va yozma nutqning ikkisi ham birdek zarur.³ Biroq har doim ham o'quvchilar x va h undoshlarini talaffuz qilib to'g'ri yozolmaydilar. Bunday hollarda bizga “O'zbek tilining imlo lug'ati” yordam beradi. Biz o'quvchidan lug'atdagi so'zlarni yodlashini talab qilolmaymiz. Sababi bunday so'zlar juda ko'p va bu noto'g'ri metodika bo'lar edi. O'qituvchi shunchaki o'quvchidan lug'atni bir necha bor ko'zdan kechirib chiqishini ta'kidlashi lozim. Bu orqali o'quvchida ko'rish orqali shu so'z xotiraga muhrlanadi va tasavvuri shakllanadi. Hamda bugungi kunda ko'pchilik tajribali pedagoglar tomonidan qo'llaniladigan diktant va ko'chirib yozish ko'nikmalarini ham alohida ta'kidlash joiz. O'quvchilarda ko'chirib yozish ko'nikmasini shakllantirishga oid asosiy qoidalarga quyidagilar kiradi:

- Har bir gapdagi so'zlarni bo'g'inlarga ajrating va ichingizda bo'g'inlab ayting.
- Ko'chirib yozishdan oldin ko'chiradiganingizni yaxlit o'qib chiqing.
- Ko'chirib yozganingizni asliga solishtiring.⁴

Diktant – Savodxonlik sinovi.

Ta'lim rus tilida olib boriladigan boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z ona tiliga bo'lgan mehr-muhabbatni o'stirish, o'zbek tilida yozishga o'rgatish, nutqini o'stirish va tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish o'zbek tili o'qituvchilarining asosiy vazifasidir. Bunda o'quvchilarning o'zbek tilidagi savodxonligini oshirishga, lug'at boyligini va nutqini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar o'zbek tilida savodli yozishga o'rgatish muammolari va ular yechimini topish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Dastlabki, o'quv soatlaridan boshlab o'quvchilarga rus alifbosi va o'zbek alifbosidagi harflarning talaffuzi va yozilishidagi farqi haqida ma'lumot berish, o'zbek alifbosidagi unli va undosh harflar talaffuzini, harf va harf birikmasining farqini tushuntirib o'tish lozim. Ularda ehtiyojli diqqatni barqarorlashtirishga, eshitish, ko'rishlarni tarbiyalash va xotirasini mustahkamlash kabi muhim talablarni amalga oshirish kerak.

Diktant o'tkazishda o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olib, ishda aniqlikka e'tibor berish, soddadan murakkabga borish muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarining ta'lim boshqa tillarida olib boriladigan (qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, turkman va rus tillari) o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirishda, yozma nutqning savodli va to'g'ri bo'lishida diktantlarning ahamiyati katta. O'quvchining eshitib idrok qilingan so'z, gap, matnni yoshi diktant hisoblanib, o'quvchi diktant yozayotganda xato qilmaslik uchun imlo va tinish belgilarining ishlatilishiga doir qoidalarga amal qilishga harakat qilindi.

Darhaqiqat, diktant vazifasiga ko'ra asosan ikki turga ajratiladi.

1.Ta'limiy diktant. 2.Nazorat diktant.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

I. Ta’limiy diktant.

Nazorat diktant o‘quvchilarning savodxonligini aniqlash uchungina emas, u ta’limiy xarakterga ham egadir. Nazorat diktant, avvalo, o‘quvchilarga ko‘pgina imlo qoidalarini eslatadi, o‘qituvchi esa diktantda yo‘l qo‘yilgan xatolarni bartaraf qilish uchun mashg‘ulotlar o‘tkazadi. Demak, nazorat diktant ta’limiy hamdir.

Ta’limiy diktantlar o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan har bir darsning 5-10 daqiqasi davomida va ba’zan to‘liq dars jarayonida o‘zlashtirilgan bilimni mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ta’limiy diktant o‘tkazilish va bajarilish usullariga ko‘ra bir necha turga ajratiladi: ta’kidiy diktant, saylanma diktant, erkin diktant, lug‘at diktant, rasmlı diktant, ijodiy diktant, izohli diktant kabi turlariga.

Diktantning bu turi o‘rganilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida yozuv darsining biror qismidamashq sifatida o‘tkazilib, unda alohida soat ajratish shart emas. Boshlang‘ich sinfda ta’limiy diktantning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

1. Lug‘at diktant.
2. Saylanma diktant.
3. Ko‘rsatish diktanti.
4. Yoddan yozuv diktanti.
5. Ta’kidiy diktant.
6. Izohli diktant.
7. Erkin diktant.
8. Ijodiy diktant.

Ma’lumki, diktant yozish malakasi boshlang‘ich sinflardan shakllantirilib boriladi. Yuqori sinflarda bu ko‘nikma va malakalar takomillashtirilib boriladi.

O‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirishda diktantning ahamiyati katta. Chunki o‘quvchi diktant yozayotganda xato qilmaslik uchun orfografik va punktuatsion qoidalarini eslashga harakat qiladi.

Ba’zi metodik qo‘llanmalarda diktant bir necha xil bo‘ladi:

Diktantlar qo‘llanishiga ko‘ra:

- a) eshitishga asoslangan diktantlar;
- b) ko‘rishga asoslangan diktantlar.

Eshitishga asoslangan diktantlar – mundarijasiga ko‘ra: lug‘at diktant, matnli diktant.

Maqsadiga ko‘ra: ta’kidiy diktant, tushuntiruvchi diktant, nazorat diktant.

Ko‘rishga asoslangan diktantlar – o‘z-o‘zini nazorat qilish diktanti; ijodiy diktant.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Ta’kidiy diktant

Ta’kidiy diktant o’quvchilarning orfografik qoidalarini ongli o’zlashtirishida o’ziga xos o’rin tutadi. Bunda eshituv organi orqali qabul qilingan taassurotlarga asoslanish bilan birga, so’z tarkibini, grammatik va orfografik qoidalarini yaxshi bilish ham talab etiladi.

Ta’kidiy diktantni og’zaki o’tkazsa ham bo’ladi: o’qituvchi gapni adabiy tilning talaffuz shakllariga rioya qilgan holda sekin o’qiydi, o’quvchilar mustahkamlanayotgan qoidaga mos so’z yoki so’z birikmalarini ajratadilar. So’ngra ularning imlosi izohlanadi. Masalan:

Zulfiyaning onasi “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi. O’quvchilar *Zulfiyaning* so’zini tanlaydilar. Buni doskaga yozish ham mumkin. Keyin imlosi izohlanadi. Ish ana shu xilda davom etadi.

Nazorat diktanti

Katta mavzular o’tib bo’lingach, shuningdek, chorak oxirida nazorat diktant o’tkaziladi. Nazorat diktantgacha grammatik-orfografik qoidalar xilma-xil mashqlar vositasida mustahkamlanadi.

Nazorat diktant asosan o’rganilgan qoidalarining qanchalik o’zlashganligini tekshirish maqsadida o’tkaziladi. Lekin bunda ham to’g’ri yozish malakasi mustahkamlanadi, o’tilgan orfografik qoidalar yodga olinadi. Diktantning bu turida yo’l qo’yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan nazorat diktantning ta’limiy ahamiyati ham bor.

Tushuntirishga asoslangan diktant

Bunday diktantda matn orfografik tahlil etiladi. Tahlillarni o’quvchilar o’zlari so’ng mustaqil ravishda yozib olishadi. O’qituvchi matn tahlili asosida savollar beradi. O’quvchilar tahlil yuzasidan javob berishadi. Diktantning bu turida tahlil turlari o’rganiladi, ularni tahlil qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tushuntirishga asoslangan diktantning ta’limiy ahamiyati bor.

O’z-o’zini tekshirishga asoslangan diktant

O’z-o’zini tekshirishga asoslangan diktant turida diktant yozib bo’lgandan so’ng o’quvchilar yozishga qiynalgan so’zlar yuzasidan o’qituvchilarga savollar berish imkoniga ega bo’ladi. Ularda ikkilanish hosil qilgan so’zlar yuzasidan savol-javob uyushtiriladi. O’qituvchi hamma savollarga javobni o’zi emas, sinfdagi to’g’ri yozgan o’quvchilardan so’rashi va ular tushuntirib berishini tashkil etishi lozim bo’ladi.

Savodxonlikni shakllantirishda bizga ta’limiy diktantlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Ta’limiy diktantlar tashkil etish va bajarilish usuliga ko’ra quyidagi turlarga bo’linadi:

- Izohli diktant
- Saylanma diktant
- Erkin diktant
- Rasm diktant
- Lug’at diktant
- Ijodiy diktant⁵

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Izohli diktant – O‘qituvchi izohlanuvchi so‘z yoki gaplarni adabiy til talaffuzi shakllariga muvofiq aytib beradi, o‘quvchilar uni yozadilar yoki o‘zi aytadigan so‘zlarni diktantdan oldin yoki keyin izohini o‘qib eshittiradi. O‘quvchilardan biri o‘qituvchining ko‘rsatmasi bilan ma’lum bir so‘zning yozilishini izohlaydi.

Ushbu diktant turida asosan so‘zning yozilishi, bo‘g‘in va tovush jihatidan to‘g‘ri yozilgan yoki yo‘qligi tekshiriladi.

Saylanma diktant- Bunda o‘quvchilar matndan mustahkamlanayotgan orfografik qoidaga mos so‘zlarnigina ajratib yozadilar. Masalan, o‘qituvchi qo‘shma va juft otlarning yozilishini mustahkamlash uchun matn tanlaydi. Diktantdan oldin qo‘shma va juft otlarning imlosi qaytariladi, maqsad tushuntiriladi. Keyin matn o‘qib beriladi. O‘quvchilarning matn mazmuniga tushungan, tushunmaganligi aniqlanadi. Saylanma diktantni ba‘zan qo‘shimcha topshiriqlar bilan murakkablashtirish mumkin. Masalan, diktant egalik va kelishik qo‘shimchalarining yozilishi yuzasidan o‘tkazilayotgan bo‘lsa, o‘quvchilar otlar (*o‘rtog‘i, boshqa, stanokka* kabilar)ning - o‘zak, negiz va qo‘shimchalarini ajratib yozadilar. Bu o‘quvchilarda ongli o‘quvni takomillashtiradi. Matndagi so‘z birikmalari (sifat bilan ot, qaratqich bilan qaralmish kabilar) ham ajratib yozilishi mumkin.

Erkin diktant - Erkin diktantda o‘quvchi matnning umumiy mazmunini saqlagan holda, ayrim so‘z yoki so‘z birikmalarini boshqa so‘z yoki so‘z birikmalari bilan almashtira oladi. Bu jihatdan erkin diktant bayonga yaqin turadi. Ma’lum orfogrammani mustahkamlash uchun mazmun va til jihatidan o‘quvchilarning bilim darajasiga mos matn tanlanadi. Matnni avval o‘qituvchi o‘qib beradi. Mazmunini bir o‘quvchidan so‘raydi. Orfografiyasi mustahkamlanishi kerak bo‘lgan so‘zlar tahlil qilinadi. Keyin o‘qituvchi birinchi xatboshi (abzas) ni o‘qiydi. O‘quvchilar eslab qolganlaricha yozadilar. Bunda gaplar soni asliga qaraganda ko‘payishi yoki kamayishi, bir so‘z o‘rniga uning sinonimi ishlatilishi mumkin. Lekin abzasdagi mazmun, mustahkamlanayotgan orfogramma saqlanishi shart. Shu asosda qolgan xatboshilar ham yozdiriladi.

Rasm asosida diktant - Diktantning bu turida ham oqituvchi biror mavzuga oid rasmlarni izohsiz ko‘rsatadi. O‘quvchilar rasmda aks ettirilgan narsa-buyumlarni avvaldan tayyorlangan orfogrammalar, yoki belgilar bilan ifodalab o‘qituvchiga ko‘rsatadi. Masalan, agar so‘z ayirish belgisi bilan yozilsa, o‘quvchilar “+” qo‘yilgan, agar yozilmasa “-” ni kartochkani ko‘rsatadi. Bunda o‘qituvchi bir vaqtni o‘zida bir necha o‘quvchini baholash imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Yana bir varianti bor, bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga turli rasmlarni ko‘rsatadi va ular predmet nomini aytib yozishlari kerak bo‘ladi. Keying so‘zga vergul qo‘yib davom etib ketaveriladi.

Suratli diktant - O‘quvchilar yozma va og‘zaki nutqini o‘stirish usullaridan yana biri, suratli diktantdir. O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, estetik didlarini, ijodkorlik ishtiyoqlarini shakllantiradigan o‘qitish usuli hisoblanadi. Sinfxonadagi stullar orqama – orqa qo‘yiladi. O‘quvchilar ham bir – birlariga orqa o‘tirgan holda surat chizadilar. Alohida dars ko‘rinishidagi bu usulda birinchi o‘quvchi manzarani bayon qiladi. O‘rtog‘i esa

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

uni suratga tushiradi. Diktant davomida o‘quvchilar almashadilar va surat chizib bo‘lingach, u tasvirlanadi. Tasvirlangan matn yozib olinadi.

Rasm asosida “JIM-JITLIK” diktanti. O‘qituvchi o‘tilgan biror mavzuga oid rasmlarni izohsiz ko‘rsatadi. Rasmlar umumlashtirilganda umumiy bir mavzuga jamlanishi lozim. O‘quvchilar rasmda aks ettirilgan narsa-buyumlarni so‘z bilan yozishadi. Yozilgan so‘z va so‘z birikmalari grammatik tahlilga tortiladi.



Misol uchun shu rasmga qarang. Bu rasmi hikoyadagi rasmlarni o‘rniga o‘quvchilar so‘zlar bilan yozishi kerak. Bu hikoya rasmdagi insonlar, hayvonlar va raqamlarni ham ko‘rib, ham yozish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi.

Lug‘at diktant o‘quvchilarda to‘g‘ri yozish malakasini hosil qilishdan tashqari, ularning fikrlash qobiliyatini ham o‘stiradi. Lug‘at diktant ko‘pincha ijodiy diktant bilan qo‘shib o‘tkaziladi. Bunda lug‘at diktant uchun berilgan so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari, gaplar tuzdiriladi, kichik-kichik hikoyalar, insholar yozdiriladi.

Lug‘at diktantni bir necha turga bo‘lish mumkin:

Ta’kidiy lug‘at diktant.

Tayyorlovchi lug‘at diktant.

Xotiraga asoslangan lug‘at diktant.

Saylanma lug‘at diktant.

Tabuga (chegaralangan) asoslangan lug‘at diktant.

Taqsimlashga asoslangan lug‘at diktant.

Tushuntirishga asoslangan lug‘at diktant.

Erkin lug‘at diktant.

Ijodiy lug‘at diktant.

Grammatik topshiriqlar bilan lug‘at diktant.

Qiyosiy lug‘at diktant.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Perfokartali lug‘at diktant. “Go‘ng” lug‘at diktant.

O‘yinli lug‘at diktant.

Xabarli lug‘at diktant.

O‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘stirishda lug‘at diktant o‘ziga xos o‘rin tutadi. U o‘zining ixchamligi va ko‘p vaqt talab qilmasligi bilan diktantning boshqa turlaridan ajralib turadi. Lug‘at diktant uchun ayrim so‘zlar beriladi. Masalan, qo‘sh undoshlarning imlosi uchun: *avval, arra, kassa, ittifoq, izzat, zarra, diqqat, grammatika, achchiq, assalom, tonna, tashakkur, sodda, issiq, rassom, professor, modda, pilla, muddat, katta, albatta, apparat, sessiya kabi* so‘zlar; bosh harflar imlosi uchun:

Qo‘sh undoshlarning yozilishi: Battol, taraddud, do‘ppi, makkajo‘xori, baqqol, baquvvat, jajji, muvaffaqiyat, dukkak, muzaffar, jannat, jizza, munajjim, taraqqiyot, izzat, pilla, tavakkal, illat, yo‘llanma, quvvat, lo‘ppi, makkor, malla, muddat, muallaq, mujassam, takabbur, murabbiy, munavvar, muruvvat, muqaddas, novvoy, patta, tabarruk, ummon, tasalli, tasavvur, shovvoz, g‘ijjak.

Qator undosh tovushli ayrim so‘zlarning yozilishi: Avj, mard, mehr, bazm, zarb, bahs, vazn, jahl, naqsh, vaqt, ganch, davr, pand, dasht, dard, do‘st, jabr, jang, naqd, juft, zabt, rizq, zavq, nashr, zulm, kasb, rasm, kibr, rahm, mavj, madh, lunj, murch, mashq, metr, mulk, g‘isht, musht, nasl, jism, naql, payt, past, rang, rost, sabr, qunt.

Lug‘at diktant matniga «Diktantlar to‘plami»da berilgan so‘zlardan tashqari, darslik, o‘qish kitoblaridagi imlosi qiyin so‘zlar ham kiritilishi mumkin.

Lug‘at diktant o‘quvchilarda to‘g‘ri yozish malakasini hosil qilishdan tashqari, ularning fikrlash qobiliyatini ham o‘stiradi. Lug‘at diktant ko‘pincha ijodiy diktant bilan qo‘shib o‘tkaziladi. Bunda lug‘at diktant uchun berilgan so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari, gaplar tuzdiriladi, kichik-kichik hikoyalar, insholar yozdiriladi.

Ayrim unilarning yozilishi. O‘quvchilar ayrim unli va undoshlarni yozilishida ham ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. Ya‘ni eshitganini yozishga odatlanishgan. Ammo ba‘zi so‘zlarda o‘qilishi boshqa, yozilishi boshqa so‘zlar bordir:

- h va x
- p va b
- t va d
- m va n
- a va o
- e va ye
- o‘ va o
- u va i

A va o unlisining yozilishi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Avval, adolat, ayoz, ayyor, naqarot, afzal, axborot, andisha, anjuman, axloq, aql, ahillik, bobokalon, vakolat, ibora, ilova, a'lo, balog'at, muomala, munosabat, ravon, muhokama, mubolag'a, tasodif, zakovat, jamoa, taom, muammo, kabobpaz, radio, munojot.

U va i unlisining yozilishi.

Butun, sovuq, uyqu, tole, supurmoq, quvur, mudir, dukurlamoq, muallim, juldur, hozir, o'rik, gulduros, qiziq, muvofiq, jodugar, mushkul, guliston, mushoira, kuydirmoq, murabbiy, gurkiramoq, kemiruvchi, burilish, majburiyat, tirgovuch, ukki.

E unlisining yozilishi.

Egizak, egov, bejirim, ezgu, gerb, elak, zehn, enaga, dengiz, sersuv, engak, energiya, istehkom, epos, epchil, delfin, eritma, tekislik, ertapishar, keskin, esdalik, bebaho, ehtiyotkorlik, keskir, ehtirom, mehmondo'st, semurg'.

X va h undoshlarining yozilishi.

Aslaha, chehra, xursandchilik, nasihat, xarajat, taxt, hokim, halol, baxt, hushyor, xayol, husnixat, xabar, harbiy, xo'jalik, jihoz, handalak, xonadon, haqiqat, maxsus, xalq, madhiya, axloq, daraxt, harakat, nahang, paxta, shaxmat, suhbat, qahramon, saxovat, hikoya, ruxsat, muhim, mahalla.

Ayrim murakkab so'zlar imlosi.

Bundan tashqari yana murakkab so'zlar ham bor. Bular yozilishiga diqqatli bo'lmasa katta xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin. Bu so'zlarda tovush ortishi va tushib qolish hodisalari yuz beradi. M:Metall, kristall, krossvord, million, taajjub, mutasaddi, taalluqli, taassurot, shuur, mutolaa, gripp, mudofaa, mutaassib, murojaat, muayyan.

Tutuq belgisini ishlatilishi.

O'zbek lotin yozuvida tutuq belgisida ikki vazifa bor: (1) a'lo, ba'zan, e'lon, e'tibor, e'tiqod, fe'l, ma'yus, me'mor, ne'mat, ra'y, ta'b, ta'zim, shu'la kabi o'zlashma so'zlarda unliidan keyin kelib, shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodaydi va (2) in'om, mas'ul, san'at, qat'iy kabi o'zlashma so'zlarda unliidan oldin kelib, shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalaydi. A'lo, *ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, tab; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unliidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda **o'** unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi; 2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi o'zlashma so'zlarda unliidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi.

Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga ba'zan y undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:

- a) **ia:** *material, milliard, radiator; tabiat, shariat* kabi;
- b) **io:** *biologiya, million, stadion, radio* kabi;
- c) **ai:** *mozaika, u krain, said, maishat* kabi;
- d) **oi:** *alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila* kabi;

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

e) **ea:** *teatr, okean, laureat* kabi;

f) **ae, oe** unlilari so'z ichida kelganda ikkinchi unli y aytilsa ham, asliga muvofiq **e** yoziladi: *aerostat, poema* kabi;

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar, odatda, aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy rioya* va boshqalar.

Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarqand, poyezd; do'st, past, artist, g'isht* kabi so'zlarda d, t tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar metallar, kilogramm+mi=kilogrammi* kabi.

II .Tekshirish diktanti.

Diktantning bu turi o'tilganlarni o'quvchilar tomonidan qanchalik o'zlashtirganliklarini sinash, tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Ta'lim rus tilida olib boriladigan boshlang'ich sinflarda o'zbek tili darslarida biz ko'proq lug'at diktant, saylanma diktant, rasmlı diktant, yoddan yozuv diktanti va tekshirish diktantlaridan foydalanish mumkin.

Grammatik topshiriqli diktant.

Bunday diktant turida o'quvchilarning grammatik, jumladan, mustaqil va yordamchi so'z turkumlarini to'g'ri qo'llash layoqatlari, imlo savodxonligi aniqlanadi. Diktovka qilib yozilgan matnni o'quvchilar turli grammatik topshiriqlar orqali tahlil qiladilar.

Berilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, gap tuzing

1. Eng, kitob, inson, do'st, yaqin.
2. Buyuk, mutafakkir, va, Alisher Navoiy.
3. SHahri, hisoblanadi, Toshkent, poytaxt, mamlakatimiz.
4. Burch, asrash, har bir, tabiatni, insoniy.
5. Yutuqlar, tufayli, mustaqillik, ulkan, erishdi, xalqimiz.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.

Berilgan darak gaplarni so'roq gaplarga aylantiring

1. Sog'lom bo'lay degan inson badantarbiya qiladi.
2. Amir Temur o'zbek xalqi tarixida o'chmas iz qoldirgan.
3. Nodira kasalligi tufayli bugun maktabga kelmadi.
4. Uch kundan buyon tinimsiz yomg'ir yog'adi.
5. Nodonnig vaqti foydasiz o'tadi.

Mening fikrimcha o'quvchilar orasida orfografik malakalarni rivojlantirishning eng yaxshi usuli bu kitobxonlikni targ'ib etishdir. Kitob o'qish nafaqat inson dunyoqarashini kengaytiradi, balki imlo qoidalarini tabiiy ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Ilmiy va badiiy

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

adabiyotlarni mutolaa qilish orqali o'quvchining faqatgina leksik boyligi ortib qolmay, so'z shakllarini ko'rish orqali aniq eslab qoladi. Yozish jarayonida so'zlarni to'g'ri qo'llaydi.

Xulosa qilib aytganda, orfografik malakalarni rivojlantirishda faqatgina qoidalarini yodlash bilangina cheklanib qolmay, balki uni amaliyotda ham qo'llash lozim. Bunda bizga yuqorida sanab o'tilgan bir nechta pedagogik yondashuvlar yorman beradi. Bularni qo'llash orqali o'quvchilar orasida yozma nutq madaniyati va savodxonlik darajasi yanada ortadi. Bu esa jamiyat va til rivoji uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyeva N.J – Navoiy “Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun Diktantlar to'plami. O'zbek tili sinflarida 2-3-4 sinflar uchun ” 2016 yil.4-6 bet.
2. M.Xoliqova, Sh.Ergasheva. “Diktantlar to'plami”(5-9 sinflar uchun) Toshkent – 2012. 4-6 betlar.
3. I.Xolmurodov, S.Musayeva Diktantlar to'plami (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma) T.2016 yil. 7 bet.
4. talimuchun.uz/maqollar/til-haqida-maqollar.
5. “Boshlang'ich sinflarda orfografik malakalarni shakllantirish” Boynazarova Sharofat.
6. “Ona tili fanini o'qitishda imloviy savodxonlikka doir ayrim qaydlar” Lolayeva Ozoda.
7. arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/tilshunoslik/o-quvchilarga-orfografik-bilimlar-berish.
8. azkurs.org/boshlangich-sinflarda-orfografik-malakalarni-shakllantirish-bo.html.
9. D.O'rinbayeva, M.Rahimova .”Diktantlar to'plami” (metodik ko'rsatma) Samarqand - 2017

MAQOLANING BOSH SARLAVHASI QALBIM TO'RIDA-MUHAMMAD YUSUF

Suvonova Gulbar Maqsadali Qizi

Toshkent Shahar Chilonzor tumani Gavhar ko'chasi 1-A uy

Annotatsiya: Quyidagi maqola O'zbek adabiyotida xalq yuragidan chuqur joy olgan ijodkor shoir Muhammad Yusuf haqidadir.Uning she'riyatga olib kirgan yangi uslublari va o'zgarishlari to'g'risida bayon etiladi.Ushbu yoritilgan manbaalardan siz Muhammad Yusuf O'zbek xalqining yuragida abadiy yashovchi shoir ekanligiga yana bir bora amin bo'lasiz.

Kalit so'zlar: she'riyatga oshnolik, hayotiy kechinmalar, yurakdan chiqqan satrlar, adabiy meros.